

CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7811703>

Ergasheva Dilafruz Chori qizi

Shahrisabz davlat pedagogika insituti magistri

Eshberdiyeva Dilnoza Alisher qizi

Shahrisabz davlat pedagogika insituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada multimedia, uning chizmachilik fani rivojidadagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Chizmachilik fanini o'qitishda mavjud usullar va metodlar tahlil qilingan. Chizmachilik fanini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Multimedia, taqdimot, grafik ish, multimedia vositalari, chizmachilik, kompetentlik, metod, virtual.*

Аннотация: *В данной статье выделены мультимедиа, его место и значение в развитии рисовальной науки. Проанализированы существующие методы и методы обучения рисованию. Представлены преимущества использования мультимедийных средств в обучении рисованию.*

Ключевые слова: *Мультимедиа, презентация, графическая работа, мультимедийные средства, рисунок, компетенция, метод, виртуальный.*

Abstract: *In this article, multimedia, its place and importance in the development of drawing science are highlighted. The existing methods and methods of teaching drawing are analyzed. The advantages of using multimedia tools in the teaching of drawing science are presented.*


Key words: *Multimedia, presentation, graphic work, multimedia tools, drawing, competence, method, virtual.*

O'bekistonda ko'pgina sohalar rivojlanishi bilan birga oliy ta'lim muassasalarida chizmachilik va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish ham rivojlanmoqda hamda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga ehtiyoj ortmoqda. Bu masalada muhtaram prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori[1] zimmamizga bir qancha vazifalarni yuklaydi. Jumladan, ta'lim tizimini takomillashtirishga, chizmachilik fanini o'qitishda zamonaviy metodlarni qo'llashda, dars mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni targ'ib qilishda o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Yurtimizda deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida chizmachilik fani o'quv jarayonlarida o'qituvchi mavzuni tushuntiradi, talaba tinglaydi, amaliy mashg'ulotlarda A3 formatda grafik vazifalar bajariladi. Bugungi kun chizmachilik va

muhandislik grafikasi fanlarida odatiy dars o'tish uslublaridan voz kechishni, yangiliklar, innovatsiyalar bilan o'quv jarayonlarini boyitishni taqozo etmoqda.

Chizmachilik fani obyektlar (turli mashinalar, mexanizmlar, binolar, turli inshootlar va boshqalar)ning chizmalarini, xaritalar va grafiklarni chizishga, turli buyumlarning tasvirilarini bajarishga oid ko'nikmalar va usullarni o'ziga qamrab olgan fan hisoblanadi (1-rasm). Chizmachilik darslarini tashkil qilishda va o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetentligining rivojlanishida, talabalarning bilish faolligini oshirish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqillikni tarbiyalashda samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunda nazariy ma'lumotlarni o'rganish darsga grafik va amaliy ishlarni bajarish bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.



1-rasm

Multimedia – kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoaxborotlar bilan ishlashga imkon beruvchi texnik qismi. Ana shunday qismga ega kompyuter multimedia kompyuter hisoblanadi. Hozirda deyarli barcha kompyuterlar multimedia qurilmalari bilan ta'minlangan. Bularga, SE-KOM, SE-K/U kompakt disklarni o'qiydigan disk yurituvchi qurilmalar, tovush platalari, videokartalar hamda boshqalar kiradi

Multimedia vositalari - tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan doimiy tarzda muloqotda bo'lishga imkon beradi. Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin (2-rasmga qarang):



Grafoprojekto



Interaktiv doska (SMART Board)



2-rasm

Multimedia vositalari asosida talabalarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning eng doldzarb muommolaridan deyishimiz mumkin. Chizmachilik sohasi mutaxassisllarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal va maksimal talablarni belgilovchi oliygohlar talabalar oldiga eng qisqa vaqt ichida zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Shunday qilib, dars mashg'ulotlarining katta qismi talabalarining mustaqil ishlariga to'g'ri keladi, ya'ni tajribali pedagogning vazifasi bu ishni eng samarali tashkil etishdan iborat. L.N.Anisimovning fikriga ko'ra, talabalarining kasbiy kompetensiyalarini, grafik tayyorgarligini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun kompyuter texnologiyalari va interaktiv ma'ruzalardan va mustaqil ta'lim olishga asoslangan innovatsion yondashuvdan foydalanish kerak[2].

Chizmachilikda axborot texnologiya dasturlaridan o'rinli foydalanish ta'limni individuallashtiradi hamda o'quvchi va talabalarining o'quv materiallarini puxta o'zlashtirib, ta'lim jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Multimedia texnologiyalari grafika va grafikaviy ta'lim jarayonlarini modellashtirish va ularni tasavvur qilish, murakkab vazifalarni yengillashtirish, mantiqiy fikrlashga undovchi materiallarni tayyorlash imkonini beradi hamda o'quvchilarning fanga qiziqitira olish va yangi mavzularni o'zlashtirishga zamin yaratadi.

Bunga misol qilib multimedia vositalaridan videoproektorni olishimiz mumkin (3-rasm).



3-rasm

Videoproektorlar – ma'lumotlarni katta va keng ko'rinishiga imkon beruvchi qurilma hisoblanadi. Bu qurilmada tasvir oddiy doskada yoki devorda aks etadi. Chizmachilik fanida videoproektorlardan foydalanish bizga katta qulayliklar yaratadi. O'quvchi va talabalarga mavzuni tushuntirish jarayonida bir vaqtning o'zida ham amaliy ham nazariy ma'lumot berib o'tish mumkin bo'ladi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega.

- Berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

- Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

- Ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

- Olingan bilimlar talabalar xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

- Katta auditoriyalarda orqa o'rindagi talabalarning ham yaxshi o'zlashtirishlariga imkon beradi.

Chizmachilik fanida videoproektorlardan foydalanish bizga katta qulayliklar yaratadi. O'qituvchi tomonidan talabalarga mavzuni tushuntirish jarayonida bir vaqtning o'zida ham amaliy ham nazariy ma'lumot berib o'tish imkoniyatini yaratib bera oladi. Bunda talabalar orasida ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan tanishish ishtiyoqi yanada oshadi. Olingan bilimlarni xotirada uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Elektron multimedia darsligi - aynan kompyuter vositasida o'quv kursini yoki uning bitta katta bo'limini o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi dasturiy-metodik kompleks[3]. Bunda darslik multimedia vositalari yordamida bayon qilingan mavzulardan, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash uchun turli xil vazifalar, talabalarning salohiyatini baholash uchun maxsus testlardan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerakki, multimedia dasturlari orqali o'qitish o'quv materiallarining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashuvchi vosita bo'lib bu ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini yanada erkin tanlash va o'tish imkonini ham yaratib beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakllari nafaqat muloqot balki axborotlarini uzatish uchun yangi imkoniyatlarining vujudga kelishiga, balki ananaviy ta'lim bilan birga ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muommolarning, yechimlarining, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. www.lex.uz

2. Dilshodbekov Sh.D. Muhandislik kompyuter grafikasi fanida mustaqil ta’limni tashkillashtirish usuli.// Toshkent Davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2021/7-son. 143-bet

3. Ergasheva Dilafruz Choriyevna. Chizmachilik fanidan multimedia vositalaridan foydalanib o'qitish tajribasi.

4. www.ziyo.uz